



“AVESTA”NING

JAHON TILLARIDAGI TARJIMALARI TAHLILI

Murodova G., tayanch doktorant

Anotatsiya.

Mazkur maqolada Avestaning tarkibi, shakllanish tarixi va ilmiy tahliliga e'tibor qaratiladi. Avesta – qadimgi Turon va Eron xalqlarining muqaddas matni bo'lib, u zardushtiylik dinining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida Avestaning etimologik kelib chiqishi, til xususiyatlari, tarixiy shakllanish jarayoni va uning qo'lyozma an'anasi o'rganiladi. Shuningdek, Sosoniylar davridagi kodifikatsiya jarayonlari, matnlarning Pahlaviy tarjimalari va G'arb olimlari tomonidan qayta tiklangan qo'lyozmalar tahlil qilinadi. Avestaning diniy, huquqiy va lingvistik ahamiyati yoritilib, uning Hind-yevropa tillari bilan bog'liqligi ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda “Yozma manbalarning ilmiy-texnologik



xaritasi” usuli qo‘llanilgan bo‘lib, turli tillardagi tarjimalar qiyosiy tahlil qilingan. Maqolada Avestani ilmiy va til jihatdan chuqur tahlil etish zarurati mavjudligi ko‘rsatib o‘tilgan. Uning qadimgi jamiyat mafkurasi hamda diniy an‘analari haqida muhim ma’lumot berishi asoslangan.

Kalit so‘zlar:

Avesta, Avesta tadqiqotlari, Zardushtiylik, qadimgi matnlar, Pahlaviy tarjimalari, kodifikatsiya, Hind-yevropa tillari, yozma manbalar, diniy an‘analar, ilmiy-texnologik xarita.

Kirish.

Avesta – qadimgi Turon va Eron xalqlarining muqaddas matni bo‘lib, Zardushtiylik dinining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Ushbu matn nafaqat diniy, balki tarixiy, lingvistik va madaniy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Avesta tarkibiy jihatdan turli davrlarda shakllangan bo‘lib, unda ilohiy marosimlar, axloqiy ko‘rsatmalar, huquqiy qoidalar hamda kosmogonik tasavvurlar aks etgan. Mazkur maqolada Avestaning tarkibi, uning tarixiy shakllanishi hamda ilmiy tahliliga e‘tibor qaratiladi. Ushbu matn qadimgi Turon vs Eron xalqlarining ijtimoiy, huquqiy va diniy hayotini o‘rganishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, u orqali biz qadimgi jamiyatlarning mafkuraviy asoslari, diniy e‘tiqodlari va huquqiy tizimlarini chuqurroq anglash imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Avestaning lingvistik jihatdan tahlili esa qadimgi Eron tillari rivojlanishi va ularning boshqa Hind-yevropa tillari bilan bog‘liqligini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, u marosimiy va diniy matnlarning og‘zaki uzatilish an‘analari haqida ham qimmatli ma‘lumot beradi. Shu bois Avesta faqat diniy matn sifatida emas, balki keng qamrovli tarixiy-madaniy yodgorlik sifatida ham o‘rganilishi lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Avesta va uning tadqiqotlari bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar uzoq tarixga ega bo‘lib, turli davrlarda turli xil ilmiy yondashuvlar orqali o‘rganib chiqilgan. Bu tadqiqotlarni shartli ravishda uch asosiy bosqichga ajratish mumkin: qadimgi sharhlash davri, Yevropa ilmiy an‘anasi va zamonaviy tadqiqotlar. Avesta matnlarini dastlabki kodifikatsiya va talqin qilish ishlari eramizdan avvalgi davrlardan boshlab amalga oshirilgan. Eramizning dastlabki asrlarida Pahlaviy tarjimalari (Zand) orqali matnning mohiyati sharhlangan. Bu tarjimalar Avesta tilining tushunilishini osonlashtirish bilan birga, Zardushtiylikning keyingi taraqqiyotiga ham katta ta‘sir ko‘rsatgan (Boyce, 1975). Yevropa ilmiy an‘anasi Avesta tadqiqotlariga XIX asrdan boshlab faol kirib kelgan. Anketil-Dyuperron (1771) tomonidan amalga oshirilgan birinchi tarjimalar G‘arb olimlarini bu matnga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirdi. Keyinchalik Fridrix Shpelgel (Spiegel, 1867) va Xerman Lommel (Lommel, 1927) kabi olimlar Avesta matnlarini lingvistik jihatdan o‘rganib, Hind-yevropa tillari tizimida uning o‘rnini aniqlashga harakat qildilar.

Zamonaviy tadqiqotlar esa Avesta matnlarining diniy, madaniy va texnologik jihatlarini chuqurroq tahlil qilishga qaratilgan. Jahon miqyosida Yoxannes Kellens (Kellens, 1998) va Martin Shvartts (Schwartz, 2007) kabi olimlar bu yo‘nalishda muhim ishlarni amalga oshirgan.

Tadqiqot metodlari.

Ushbu maqolada tadqiqot metodi sifatida yordamchi tarix faniga yangi kirib kelgan “Yozma manbalarning ilmiy-texnologik xaritasi” metodidan foydalangan holda “Avesta”ning bir qator tillardagi tarjimalari tahlil qilindi. Bundan tashqari tarixiy xolislik, xronologik ketma-ketlik va qiyosiy taqqoslash usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

Zardushtiylarning muqaddas kitobi – Avesta muqaddas matnlar to‘plami sifatida e‘tirof etiladi. Bu nomning etimologiyasi va aniq ma‘nosi hali to‘liq aniqlanmagan. Garchi W. Belardining “Il nome dll’Avesta” [1: 74] asarida yangi tadqiqot o‘tkazilgan bo‘lsa-da, Bartolomeyning gipotezasi [2: 108] hanuz ishonarli bo‘lib qolmoqda. Unga ko‘ra, “abestāg” shaklini qabul qilish va uni qadimgi eroncha “upa-stāvaka”- so‘zidan, ya‘ni “maqtov” ma‘nosidan keltirib chiqarish mumkin. Aslida, Avesta – avestacha yozilgan matnlarning to‘plami, Zand esa ularning pahlaviy tilidagi tarjima va sharhlaridir. Avesta kitobi ikki asosiy jihatdan muhim: birinchidan, u bizga dastlabki zardushtiylik ta‘limotlarini yetkazadi, ikkinchidan, avesta tilidagi yagona yozma manba hisoblanadi. Ushbu til qadimgi fors tili bilan birgalikda hind-eron tillarining eroniy guruhiga kiradi. Avestaning shakllanishida zardusht ruhoniylari va Sosoniylarning hokimiyati asosiy rol o‘ynagan. Afsuski, ushbu to‘plamning faqat bir qismi bizgacha yetib kelgan. Bugungi kunda uni qadimgi dinga sodiq qolgan Hindiston va Erondagi fors jamoalari saqlab kelmoqda. Hozirgi kunda G‘arb olimlari tomonidan qayta tiklangan Avesta matni qo‘lyozmalarda saqlangan bo‘lib, mavjud qo‘lyozmalarning barchasi so‘nggi ming yillikka oid. Avestaning eng qadimgi ma‘lum qo‘lyozmasi milodiy 1288-yilga tegishlidir. Muqaddas kitobning tarixi bir nechta Pahlaviy manbalarda bayon qilingan bo‘lib, ularning asosiy mazmuni quyidagicha: Ahura Mazda tomonidan yaratilgan yigirma bir naskdan iborat Avesta payg‘ambar Zardusht tomonidan kaviy Vishtaspaga taqdim etilgan. Ushbu matnning ikki nusxasi mavjud bo‘lganligi rivoyat qilinadi: biri “Shasabigan” xazinasida [3:230-231];[4:108], ikkinchisi esa “arxivlar uyi” (Diz-i Nibišt)da saqlangan. [5: 186] Aleksandr Makedonskiyning istilosi davrida Avesta yo‘q qilingan yoki parchalangan. Yunonlar undan foydali deb hisoblangan ilmiy qismlarini o‘z tillariga tarjima qilganlar. Avestani ilk bor qayta tiklashga bo‘lgan urinish Arshakiylar davriga borib taqaladi. Shoh Valaxsh parchalangan matnlarni qayta to‘plashga harakat qilgan bo‘lib, yozma va og‘zaki an‘ana orqali saqlanib qolgan qismlarini birlashtirishga intilgan. Sosoniylar davrida esa bu jarayon yanada kengaytirilgan bo‘lib, to‘rt bosqichda amalga oshirilgan:

1-bosqich. Ardasher I (226–241) – Shoh Ardasher I oliy ruhoniylar Tansarga (yoki Tosar) Avesta parchalarini to‘plashni topshirgan. Bu bosqichda matnlarning dast-

labki jamlanmasi shakllantirilgan.

2-bosqich. Shopur I (241–272) – Shoh Shapur I yunon va hind manbalaridan olingan ilmiy matnlarni Avestaga kiritgan.

3-bosqich. Shopur II (309–379) – Bu davrda oliy ruhoniy Adurbad Mahraspandon Avesta matnlarini tanqidiy tekshirib, kanonik shaklga keltirgan

4-bosqich. Xusrav I Anushirvon (531–579) – Shoh Xusrav I hukmronligi davrida Pahlaviy tarjimasi qayta ko'rib chiqilgan va matnlarning izohlari mustahkamlangan. Bu bosqichda Avesta sharhlari yanada kengaytirilgan va yozma an'anaga mustahkam asos solingan.

Diniy an'analar haqidagi manbalar ko'pincha ziddiyatli bo'lib, ularni to'g'ridan-to'g'ri qabul qilish qiyin. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida Avestaning kelib chiqishi va tarqalish jarayonini quyidagicha talqin qilish mumkin. Avestaning kelib chiqishi Dēnkard va Ardā Virāz-nāmag matnlaridagi rivoyatlar asosan afsonaviy xarakterga ega bo'lib, tarixiy ishonchliligi past. Ahamoniylar davrida yozib olingan va keyinchalik yunon istilochilari tomonidan yo'q qilingan Avesta haqidagi an'anaviy da'volarni tasdiqlovchi mustahkam dalillar mavjud emas. Avestaning aniq yozilish davri va geografik joylashuvi hali ham bahsli masala bo'lib qolmoqda. Avesta tilining fonetik va grammatik xususiyatlari bu matnning Fors viloyati lahjasida emasligini aniq ko'rsatadi. Olimlar Avestaning kelib chiqish joyi haqida turli farazlarni ilgari surganlar:

Tedesco fikriga ko'ra Shimoliy-g'arbiy hudud [6: 184-258.], Shimoliy-sharqiy hudud-Morgenstierne [7:183-202] Xorazm -Henning[8:40-56],[9:151-67], Marg'iyona-Baxtriya-Humbach [10: 109-122.], Seiston -Gnoli[11:67-130] lokalizatsiya qilganligini ko'rishimiz mumkin.

Avesta matnlarining xronologik tabaqalanishi. Avesta yagona davr mahsuli emas, balki turli davrlarda shakllangan matnlar to'plamidir. Eng qadimgi qismlar quyidagilar deb hisoblanadi:

Gatalar (Yasna 28–34, 43–51, 53)

Yasna Haptanhāiti (Yasna 35–41)

Yasna 27 dagi to'rt asosiy ibodat

Zamonaviy tadqiqotchilar Gatalarning paydo bo'lish vaqtini taxminan miloddan avvalgi 1000-yilliklarga, yangi Avestaning eng qadimgi qatlamlarini esa Ahamoniylar davriga oid deb baholamoqdalar. Bu yondashuv Avestaning uzoq vaqt davomida og'zaki an'analar orqali saqlanganini ham tasdiqlaydi. Arshakiylar davrida Avestaning yozilganligi haqidagi bahslar uzoq yillar davomida ilmiy munozaralarga sabab bo'lib kelgan. 1902-yilda Fridrix-Karl Andreas Avestaning "Vulgata" versiyasi noto'g'ri yozilgan bo'lishi mumkinligi haqida fikr ilgari surdi. Unga ko'ra, matn dastlab Pahlaviyga o'xshash yozuvda bo'lgan va keyinchalik noto'g'ri ko'chirilgan. Ushbu nazariya keyinchalik H. W. Bailey [12: 151-60], G. Morgenstierne[13: 5-7.] va W. B. Henning[14:40-56]

tomonidan keskin rad etilgan. Shuningdek, Arshakiylar davrida Avesta mavjud bo'lgan bo'lsa ham, uning diniy va madaniy hayotdagi amaliy ta'siri juda cheklangan bo'lgan. Sosoniylar davrida esa Avesta matnlari qayta yozilib, manba shaklga keltirilgan. Bu jarayon davomida maxsus alifbo yaratilgan bo'lib, u og'zaki talqinning eng nozik fonetik jihatlarini aks ettirishga mo'ljallangan edi. K. Hoffmann[15:39.] tadqiqotlariga ko'ra, bu yozuv taxminan IV asrda, Shapur II davrida rasmiylashtirilgan. Ushbu kodifikatsiya jarayoni zardushtiylikni mustahkamlash va uni buddizm, xristianlik kabi dinlar bilan raqobatbardosh qilish maqsadida amalga oshirilgan. Mazkur davrga oid Avesta haqidagi eng qadimgi yozma dalillardan biri Kirdir bitiklarida uchraydi [16: 269–306]. Bu matnlar zardushtiylik mafkurasi va davlat dini sifatidagi mavqeyining kuchayishini aks ettirgan bo'lib, aynan Sasaniiy hukmdorlari tomonidan Avestaning rasmiy shaklda tuzilishi va targ'ib etilishi bilan bog'liqdir. Sosoniylar imperiyasi qulashi va bizgacha yetib kelgan eng qadimgi Avesta qo'lyozmalari tarixi haqida juda kam ma'lumot mavjud. Ma'lumki, musulmonlarning istilosi va zardusht jamoalarining tarqalishi diniy an'ananing zaiflashishiga olib kelgan, bu esa Avesta manbasiga zarar yetkazgan. Shuningdek, qo'lyozmalarni o'rganish natijasida barcha nusxalar bitta umumiy manbadan kelib chiqqanini isbotlovchi faktlar aniqlangan. K. Hoffmann ushbu umumiy manbani "asosiy qo'lyozma" deb ataydi [17: 515] va uni IX-X asrga mansub deb hisoblaydi. Bu narsa K. Hoffmann[18: 89-93.] tomonidan Yasnani o'rganish natijasida, H. Humbach [10: 109-22] tomonidan esa Yashtlar va Videvdodni o'rganish natijasida aniq isbotlangan. Bu fikrni Nyberg [19:13] ham ilgari surgan bo'lib, u barcha mavjud Avesta qo'lyozmalarining yagona Sosoniy arxetipidan kelib chiqqanligini taxmin qilgan edi. Shuningdek, Morgenshtirne [20: 32] ham Yasna, Yasht va Videvdat materiallariga asoslangan holda Nyubergning gipotezasini qo'llab-quvvatlovchi dalillar keltirgan. Sosoniylar davrida Avesta matnlarining to'plami va unga yozilgan sharhlar (zand) Dēnkardning 8-bobida tasvirlangan. Ushbu to'plam, ehtimol, har biri yettita bobdan iborat uchta asosiy kitob shaklida tuzilgan bo'lib, uning tuzilishi zardushtiylikning diniy va huquqiy an'alariga mos kelgan.

Dēnkard va Sosoniylar davri matni muammosi. Dēnkard orqali Avestaning Sosoniy arxetipini to'liq tiklash mushkul, chunki unda muayyan cheklavlar va noaniqliklar mavjud. Muhim omillardan biri shundaki, Dēnkarddagi tahlillar Avesta matnlarining pahlaviy tiliga tarjimasiga asoslangan bo'lib, bu bir necha muhim cheklavlarni keltirib chiqaradi:

1. Pahlaviy tarjimasi mavjud bo'lmagan matnlar e'tibordan chetda qolgan.

2. Pahlaviy davridan keyin yozilgan matnlar ham bu manbaga kiritilgan bo'lishi mumkin.

Bu holat Avestaning oxirgi davrga oid bo'lgan matnlarini ham o'z ichiga olganini ko'rsatadi. Masalan, Vištāsp Yasht zardushtiylik an'alariga ko'ra,

Zardushtning shoh Vištaspa bergan ta'limoti deb qaladi. Ammo ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu matn aslida Videvdoddan olingan parchalar asosida kompilyatsiya qilingan va keyinchalik o'zgartirilgan. Shu bois, uni avvalgi an'analarning to'g'ridan-to'g'ri davomchisi deb baholash qiyin. Ma'lumki, bizgacha yetib kelgan Avesta matnlari Sosoniy arxetipining faqat ma'lum bir qismini tashkil etadi. Dushen-Giyomen tadqiqotlariga ko'ra, asl Avestaning taxminan to'rtinchi bir qismi bizgacha yetib kelgan [21:31-bet]. Bu xulosa pahlaviy sharhlardagi Avesta matnlarining atigi 25 foizi bugungi kunda mavjud bo'lgan Avestada uchrashiga asoslanadi. Biroq, boshqa dalillar shuni ko'rsatadiki, yo'qolgan Avesta matnlarining miqdorini aniq baholash qiyin. Xususan, Pursišnīhā va Vāēθā Nask singari parchalar yo'qolib ketgan Videvdodga o'xshash huquqiy adabiyotlarning mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa Avesta matnlarining to'liq tarkibini tiklash imkoniyatini cheklaydi. Boshqa tomondan, Sosoniy ruhoniylari tomonidan bilingan eng qadimgi matnlar – Qadimgi Avesta va eski Yashtlar butunligicha bizgacha yetib kelgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Chunki, yo'qolgan Yashtlardan hech qanday iqtibos topilmagan, bu esa ularning to'liq saqlangan bo'lishi ehtimolini oshiradi. Forslar muqaddas kitobning eng qadimiy qismlarini aynan og'zaki va yozma an'analar orqali juda ehtiyotkorlik bilan yetkazib kelganligi ma'lum.

Mazkur tadqiqot Avesta tadqiqotlari va tarjimalarining asosiy bosqichlarini tahlil qiladi. Unda Avesta matnlarini o'rganish jarayonining tarixiy evolyutsiyasi, turli ilmiy maktablarning yondashuvlari hamda zamonaviy tadqiqot uslublari yoritiladi. Shu bilan birga, Avesta filologiyasining shakllanishi, qo'lyozmalar tanqidiy tahlili va qiyosiy tilshunoslikning o'rni ham batafsil muhokama qilinadi.

1-boqsich: Avestaning dastlabki tarjimalari va tadqiqotlari (XVIII–XIX asrlar)

Avesta tadqiqotlari G'arb ilmiy doiralarga XVIII asrda Anketil-Duperronning tarjimasi orqali tanishtirildi. Biroq, ushbu dastlabki bosqichda ilmiy uslubiy yondashuv hali shakllanmagan bo'lib, tarjimalar ko'p jihatdan Parsi an'analarga bog'liq edi. XIX asr esa Avesta matnlarining filologik va qiyosiy tilshunoslik asosida o'rganilishi bilan ajralib turadi. Quyida ushbu davrning eng muhim tadqiqotchilari va ularning hissasi ko'rib chiqiladi.

Anquetil-Duperron (1771) – G'arbdagi birinchi tarjima

Asar: “Zend-Avesta, ouvrage de Zoroastre” [22] Fransuz tilida yozilgan. Olim Hindistondagi Parsi ruhoniylari bilan bevosita muloqot qilib, Avesta matnlarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldi. Avestaning mavjudligini va uning zardushtiylik diniy matni ekanligini G'arb ilmiy doiralarga tanishtirdi. Avestaning dastlabki tarjimasini yaratib, uni Yevropada mashhur qildi. Shunga qaramay bir qator kamchiliklari ham bor edi. Pahlaviy

sharhlariga haddan tashqari tayanib, matnni noto'g'ri talqin qilgan. Ilmiy asoslarning yetarli emasligi sababli tarjimada ko'plab xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Uning ishi shu sababli uzoq yillar davomida Avestaning haqiqiyliги haqida bahslarga sabab bo'ldi.

Ejen Burnuf – Ilmiy yondashuvning shakllanishiga asos solgan.

Asar: “Commentaire sur le Yasna” [23] Fransuz tilida yozilgan. U. Avesta grammatikasini birinchi bo'lib ilmiy asosda o'rganib, uni sanskrit bilan taqqoslash va qiyosiy tilshunoslik asosida Avestaning mustaqil forsiy-eroniy til ekanligini ilmiy jihatdan isbotladi. Shuningdek asarda Avesta va hind-yevropa tillari o'rtasidagi genealogik bog'liqlikni aniqlab, ularning o'zaro aloqalarini yoritdi.

Fridrix Shpigel (1852–1863) – Nemis tarjimasi va klassik sharhlarni yaratgan.

Asar: “Avesta, die heiligen Schriften der Parsen” [24] Nemis tilida yozilgan. Avestaning to'liq tarjimasini yaratib, unga batafsil sharhlar yozdi. Lekin, “An'anaviy” maktab vakili sifatida Pahlaviy sharhlarini asosiy manba sifatida ishlatdi. Uning ishlari G'arbiy Yevropada Avesta tadqiqotlarining rivojlanishiga muhim hissa qo'shdi. Biroq, Pahlaviy sharhlariga haddan tashqari bog'lanib qolishi uning tafsirlarini cheklagan.

Jeyms Darmesteter (1892–1893) – Qiyosiy tilshunoslik va tarjimalar yaratgan.

Asar: “Sacred Books of the East”, Vol. 4, 23, 31 [25] Ingliz va fransuz tilida yozilgan. Avestaning ingliz va fransuz tillaridagi muhim tarjimalaridan birini yaratdi. Qiyosiy tilshunoslik usulidan foydalangan holda Avesta matnlarini tahlil qildi, natijada Avestaning turli qismlarining tarixiy shakllanishi va ularning diniy ahamiyatini o'rgandi.

Karl Fridrix Geldner (1889–1896) – Tanqidiy nashr va ilmiy metodika yaratgan.

Asar: “Avesta: The Sacred Books of the Parsis” [26] Nemis tilida yozilgan. Avestaning eng muhim tanqidiy nashrlaridan birini yaratdi. Bunga erishish maqsadida u 120 ta qo'lyozmani o'rganib, matnlarning eng aniq versiyasini aniqlashga harakat qildi. “Veda maktabi” vakili sifatida Pahlaviy sharhlarini ishonchsiz deb hisoblab, matnni sanskrit bilan qiyoslash orqali talqin qildi. Natijada, Avesta matnlarining ilmiy tanqidiy tahlili va ishonchli nashrlari uchun mustahkam poydevor yaratdi. Uning uslubi keyinchalik Avesta tadqiqotlarida asosiy yondashuvlardan biriga aylandi.

XVIII–XIX asrlar Avesta tadqiqotlari uchun muhim davr bo'lib, dastlab Anketil-Duperron kabi tadqiqotchilar tomonidan matn G'arbgacha tanishtirilgan bo'lsa, keyinchalik Burnuf, Shpigel, Darmesteter va Geldner kabi olimlar tomonidan uning filologik, qiyosiy va tanqidiy tahlillari amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotlar Avesta matnlarini ilmiy asosda o'rganishning poydevorini yaratib, keyingi asrlardagi Avesta tadqiqotlari rivojlanishiga yo'l ochdi.

2-bosqich XX asr – Avesta tadqiqotlarining ilmiy yuksalishi

XX asr Avesta tadqiqotlari uchun muhim bosqich bo'lib, bu davrda matnlarni lingvistik, tarixiy va dinshunoslik jihatdan o'rganishga qaratilgan turli yondashuvlar rivojlandi. Bu davrda Avesta matnlarining lug'aviy bazasi shakllantirildi, qo'lyozmalarning qiyosiy tadqiqotlari kuchaydi va yangi tarjimalar paydo bo'ldi. Quyida ushbu jarayonda yetakchi bo'lgan olimlar va ularning ilmiy hissasi yoritiladi.

Kristian Bartolome (1904) – Avesta lug'atshunosligining asoschisi.

Asar: “Altiranisches Wörterbuch” [27] Nemis tilida yozilgan. Birinchi to'liq Avesta lug'atini yaratdi. Lug'atda har bir so'zning morfologik va semantik jihatlarini filologik asosda o'rgandi. Uning lug'ati bugungi kunda ham Avesta tadqiqotlarida asosiy manbalardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu lug'atni yaratish davomida Avesta matnlarini filologik tahlil qilish va tarjima qilish uchun ishonchli asos yaratdi. Uning ishlari zamonaviy eronshunoslik va qiyosiy tilshunoslik tadqiqotlarida katta ahamiyat kasb etadi.

Henrik Nyuberg (1938) – Avestaning tarixiy kontekstini o'rgangan.

Asar: “Die Religionen des Alten Iran” [28] Nemis tilida yozilgan. Ushbu asarda Avesta matnlarini tahlil qilishda tarixiy va madaniy kontekstga e'tibor qaratdi. Tarjimalarga tanqidiy yondashib, ilgari qabul qilingan ba'zi tushunchalarni qayta ko'rib chiqdi. Natijada Zardushtiylik va Avestaning shakllanish jarayonini chuqurroq tahlil qilgan. Ba'zi tarjimalarning keyingi zardushtiy tafsirlariga haddan tashqari bog'liq bo'lib qolganini ko'rsatdi. Avesta matnlarini tarixiy nuqtayi nazardan qayta talqin qilishga harakat qildi.

Helmut Humbax (1959) – Gotlarning filologik tadqiqi

Asar: “Die Gatha's des Zarathustra” [29] Nemis tilida yozilgan. Gotlarning yangi ilmiy tarjimasini yaratdi. Ularning tilshunoslik jihatdan Vedaga yaqinligini tahlil qildi. She'riy tuzilishi va diniy marosimlardagi o'rni bo'yicha izlanishlar olib bordi. Ushbu asar “Got”larni chuqur filologik tahlil qilishga asos solgan muhim tadqiqotlardan biri hisoblanadi.

Ilya Gershevich (1959) – Yashtlarning qiyosiy tahlili

Asar: “The Avestan Hymn to Mithra” [30] Asar Ingliz tilida yozilgan. Asarda Yashtlarni o'rta eroniy tillari bilan qiyoslab, ularning rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Avesta matnlarining diniy va mifologik mazmunini tushuntirishda yangi yondashuvlar ilgari surilgan. Uning ishlari Avesta matnlarini semantik va tarixiy jihatdan chuqurroq tushunishga xizmat qildi. Zardushtiylikning ibtidoiy marosimlari va ilohiy obrazlari bo'yicha yangi talqinlarni taklif qildi.

3-bosqich. XXI asr – Zamonaviy tadqiqotlar XXI asrda Avesta tadqiqotlari texnologik va ak-

ademik jihatdan yangi bosqichga chiqdi. Endi matnlar nafaqat filologik va tarixiy nuqtayi nazardan, balki marosimiy, lingvistik va raqamli tadqiqot usullari orqali ham o'rganilmoqda. Quyida zamonaviy tadqiqotlarning yetakchi olimlari va ularning hissasi haqida ma'lumot berilgan.

Jan Kellens – Got tadqiqotlarining rivoji

Asar: “Études avestiques et mazdéennes”. Asar Fransuz tilida yozilgan.

Asarda Gotlarni she'riy va marosimiy yondashuv orqali tahlil qilingan. Avestaning og'zaki an'analar bilan bog'liqligini o'rganib, matnning avloddan-avlodga o'tish jarayonini tahlil qilgan. Uning tadqiqotlari Gotlarni dinshunoslik va tilshunoslik jihatdan qayta baholash imkonini berdi.

Alberto Kantera – Qo'lyozma tadqiqotlari va raqamli Avesta

Asar: “The Transmission of the Avesta” [31] Ingliz va ispan tillarida yozilgan

Ushbu asarda Avestaning turli qo'lyozmalar orqali qanday nusxadan nusxaga o'tganini chuqur tahlil qilingan. Raqamli tadqiqotlar orqali Avesta matnlarining variatsiyalarini o'rganish usullarini rivojlantirilgan. Uning ishlari Avesta matnlarining manbaviy tanqidiy tahlili va qo'lyozma an'alarini chuqur tushunish uchun muhim ahamiyatga ega.

Filipp Kreyenbrok – Zardushtiylik va marosim tadqiqotlari

Asar: “Living Zoroastrianism: Urban Parsis Speak about their Religion” [32] Ingliz tilida yozilgan. Zamonaviy zardushtiylikning Avesta matnlaridan qanday foydalanganini o'rgangan. Zardushtiylikning zamonaviy amaliyotlarini tahlil qilingan. Uning ishlari Avesta matnlarining hozirgi diniy marosimlarda tutgan o'rnini anglashga yordam beradi.

Prods Oktor Skarvo – Zamonaviy filologik tadqiqotlar olib borgan.

Asar: “An Introduction to Zoroastrianism” Asar Ingliz tilida yozilgan. Avesta grammatikasi va uning tarixiy taraqqiyotini yangi metodlar bilan o'rganilgan. Avesta matnlarining tuzilishi va sintaktik xususiyatlarini tahlil qilingan.

“Yasnaga Sharh” [Loyiha (Davom etmoqda)]

Jamoa rahbari: Alberto Kantera Ushbu loyiha maqsadi: Yasna matnining sharhini yaratish. Qo'lyozmalar bilan taqqoslangan holda matnning turli versiyalarini chuqur tahlil qilish.

Eski va yangi tarjimalar o'rtasidagi farqlar

Avesta tarjimalarining rivojlanishi turli ilmiy yondashuvlarning shakllanishiga olib keldi. Dastlabki tarjimalar asosan Pahlaviy sharhlariga tayangan bo'lsa, keyinchalik qiyosiy tilshunoslik, filologiya va marosimiy tadqiqotlar asosida yangi tarjimalar yaratildi. Quyidagi jadval eski va yangi tarjimalar o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rsatadi:

Xususiyat	Eski tarjimalar (18–19-asrlar)	Yangi tarjimalar (20–21-asrlar)
Yondashuv	Pahlaviy sharhlariga asoslangan, talqinlar ko'proq an'anaviy tafsirlarga bog'liq bo'lgan	Filologik va qiyosiy tilshunoslik asosida tahlil qilinib, mustaqil tarjimalar yaratilgan
Qo'lyozmalar	Cheklangan miqdordagi qo'lyozmalarga tayanilgan, ko'pincha Hindistondagi Parsi jamoalaridan olingan manbalar ishlatilgan	Ko'plab qo'lyozmalar va arxeologik topilmalar qo'shilgan, shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida matnlar taqqoslangan
Qiyosiy metod	Avesta faqat Sanskrit bilan taqqoslangan va hind-yevropa tillari bilan bog'liqligi o'rganilgan	Avesta nafaqat Sanskrit bilan, balki o'rta eroniy tillari (Pahlaviy, So'g'diy, Xorazmiy) va boshqa hind-yevropa tillari bilan taqqoslangan
Marosim tushunchasi	Avesta ko'pincha mifologik yoki falsafiy matn sifatida talqin qilingan	Avesta tirik marosimiy an'ana sifatida ko'rib chiqilgan va uning amaliy marosimlardagi roli o'rganilgan
Tilshunoslik yondashuvi	Avesta tili to'liq tushunilmagan va ba'zan noto'g'ri talqin qilingan	Avesta grammatikasi va fonologiyasi chuqur o'rganilib, aniqlik oshirilgan
Sharh metodologiyasi	Pahlaviy sharhlari to'liq qabul qilingan va ularga ishonch katta bo'lgan	Pahlaviy sharhlari tanqidiy tahlil qilinib, matn mustaqil o'rganilgan
Maqsad	Avestaning mazmunini G'arb ilmiy doiralari uchun yetkazish	Avesta matnlarini ilmiy asosda to'liq tushunish va ularni hozirgi zardushtiy jamoalar uchun amaliy yondashuv bilan talqin qilish



Xulosa va takliflar.

Avesta tadqiqotlari tarix davomida turli bosqichlardan o'tib, hozirgi kunda ilmiy va texnologik jihatdan mukammallashmoqda. Eski tarjimalardan farqli o'laroq, bugungi tadqiqotlar matnlarni lingvistik, tarixiy va madaniy jihatdan chuqur tahlil qilish bilan birga, ularni marosimiy kontekstda ham o'rganmoqda. Kelajakda esa raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va multidisiplinar yondashuvlar orqali Avesta tadqiqotlari yangi bosqichga ko'tarish ustida ishlash kerak.

Adabiyotlar

1. W. Belardi, Il nome dell'Avesta: alla ricerca di un significato perduto, Accademia nazionale dei Lincei, Serie VIII, 24, Rome, 1979, pp. 251-74.
2. Chr. Bartholomae, Die Gatha's des Avesta. Zarathushtra's Verspredigten, Strasburg, 1905.
3. Bailey, Zoroastrian Problems Harold Walter Sir., 1971, Clarendon Press.
4. Markwart, A Catalogue of the Provincial Capitals of Ērānshahr, 1931.
5. Nyberg, Manual II, Wiesbaden, 1974.
6. P. Tedesco, Dialektologie der westiranischen Turfantexte, Le Monde Oriental 15, Uppsala, 1921, pp. 184-258.
7. G. Morgenstierne, Report on a Linguistic Mission to Afghanistan, Oslo, 1926.
8. W. B. Henning, The Disintegration of the Avestic Studies, TPS, 1942, pp. 40-56.
9. W.B. Henning Selected Papers II, Acta Iranica 16, Tehran and Liège, 1977, pp. 151-67).
10. H. Humbach, Beobachtungen zur Überlieferungsgeschichte des Avesta, MSS 31, 1973, pp. 109-22.
11. G. Gnoli, Ricerche storiche sul Sistān antico, Rome, 1967.
12. Bailey, Zoroastrian Problems, pp. 151-60.
13. G. Morgenstierne, Report on a Linguistic Mission to Afghanistan, Oslo, 1926
14. W. B. Henning, The Disintegration of the Avestic Studies, TPS, 1942.
15. K. Hoffmann, Aufsätze zur Indoiranistik I, Wiesbaden, 1975.
16. Skjarvo, "AMI", 16, 1983.
17. K. Hoffmann, II, Wiesbaden, 1976.
18. K. Hoffmann, Prolegomena to the Sources on the History of Pre-Islamic Central Asia, Budapest, 1979, pp. 89-93.
19. Nyberg, Die Religionen des alten Iran" Nachdruck der Ausgabe 1938.
20. Morgenshtirne, Orthography and Sound-system of Avesta NTS 12, 1942, 32-bet, 6-taqdim.
21. Dushen-Giyomen, La religion de l'Iran ancien, Paris, 1962 31-bet.
22. Anquetil-Duperron, Zend-Avesta, ouvrage de Zoroastre. 1771.
23. Ejen Burnuf, Commentaire sur le Yasna 1833.
24. Fridrix Shpigel, Avesta, die heiligen Schriften der Parsen, hochwertiger Nachdruck der Originalausgabe aus dem Jahr 1863.
25. Jeyms Darmesteter, Sacred Books of the East, Vol. 4, 23, 31, 1880.
26. Karl Fridrix Geldner, Avesta: The Sacred Books of the Parsis, 1896.
27. Chr. Bartholomae, Altiranisches Wörterbuch, Strasburg, 1904, with additions and corrections in Zum Altiranischen Wörterbuch, Strasburg, 1906.
28. Henrik Nyuberg, Die Religionen des Alten Iran, 1938. 506 pages.
29. Helmut Humbach, Die Gatha's des Zarathustra, 2 vols.: 163 pp.; 103 pp. Heidelberg: Carl Winter, Universitätsverlag, 1959.
30. Ilya Gershevich The Avestan Hymn to Mithra, University Press, 1967 - Avesta - 356 pages.
31. Alberto Kantera The Transmission of the Avesta, Iranica, vol. 20. Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2012.
32. Filipp Kreyenbrok, Living Zoroastrianism: Urban Parsis Speak about their Religion", London: Routledge, 2001.